

## RASMIY DOIRALARDA QO'LLANILADIGAN QOLIP BIRIKMALARNING XITOIY TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MASALASI



**Dinora Abdujabbor qizi Saidova**

Magistrant,

Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasi,

Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

[dinara.saidova.98@mail.ru](mailto:dinara.saidova.98@mail.ru)

*Ilmiy rahbar: PhD Mustafayeva S.T.*



<https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue04-a5>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida qo'llaniladigan qolip birikmalari haqida bayon etilgan. Rasmiy doiralarda, konferensiya, siyosiy tadbirlarda qo'llanilgan muhim qolip birikmalarining tarjima qilish masalasi alohida ko'rib chiqildi va tahlil qilindi. Bu birikmalar tarjima jarayonida notiq nutqida ko'p qo'llaniladi. Bu qolip birikmalar asosan konferensiya, marosim, uchrashuv va boshqa rasmiy tadbirlarda keng qo'llaniladi. Ushbu mavzuni tadqiq etgan holda, ushbu maqolada tarjima jarayonida ba'zi so'zlarning qo'llanilish tartibi va ma'nolari bilan tanishib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** sinxron tarjima, etiket, qolip birikma, old ko'makchi.

## ПЕРЕВОД КОНСТРУКЦИЙ ИСПОЛЗУЕМЫХ В ФОРМАЛЬНЫХ КРУГАХ С КИТАЙСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

**Динора Абдужаббор кизи Саидова**

**Аннотации:** В этой статье описаны комбинации шаблонов, используемые в процессе перевода с китайского на узбекский. Отдельно был рассмотрен и проанализирован вопрос о трансляции важных стереотипов, используемых в официальных кругах, на конференциях и политических мероприятиях. Эти соединения часто используются в процессе перевода речи говорящего. Эти шаблоны широко используются на конференциях, церемониях, встречах и других официальных мероприятиях. По мере того, как мы исследуем эту тему, в этой статье мы рассмотрим порядок и значение некоторых слов в процессе перевода.

**Ключевые слова:** синхронный перевод, этикет, шаблонная комбинация, предлог.

## TRANSLATION OF CONSTRUCTIONS USED IN FORMAL CIRCLES FROM CHINESE TO UZBEK

**Dinora Abdujabbor kizi Saidova**

Филология / Филология / Philology

**Abstract:** This article describes the template combinations used in the translation process from Chinese to Uzbek. The issue of translating important stereotypes used in official circles, conferences, and political events was considered and analyzed separately. These compounds are often used in the translation process in the speaker's speech. These templates are widely used in conferences, ceremonies, meetings and other official events. As we explore this topic, in this article we will look at the order and meaning of some words in the translation process.

**Key words:** simultaneous translation, etiquette, template combination, preposition.

### Kirish

Bugungi kunda odob-axloq, jamoat orasida o'zini tutish zamonaviy madaniyatning ajralmas qismidir. Bu esa o'z navbatida aloqa normalari va etiket qoidalariga rioya qilishni talab qiladi<sup>1</sup>. Sinxron tarjima bugungi kunda ommalashib borayotgan tarjima turi bo'libgina qolmay, o'zida muomala madaniyati, etiket, odob-axloq kabi sifatlarni ham namoyon etuvchi kasblar qatoridan joy olmoqda. Sinxron tarjimada tarjimon nafaqat o'z ona tilisi va tarjima qilinayotgan tilni bilishi balki muomala madaniyatini, shu tildagi ma'lum turg'un birikmalarni ham yaxshi bilmog'i lozim<sup>2</sup>.

Rasmiy davralarda, xususan siyosiy, iqtisodiy muzokaralarda, delegatsiya uchrashuvlar, konferensiyalarda esa muomala madaniyatida qo'llaniladigan leksik va grammatik birliklar qator xususiyatlarga ko'ra kundalik so'zlashuv tilidan farq qiladi. Bunday hollarda nutqda qolip (ma'lum me'yoriy qolipga solingan) birliklarning alohida o'rni bor. Mazkur maqola doirasida shu turdagi til birliklari ba'zilarining tahlili amalga oshirildi. Mazkur tahlil nafaqat tilshunoslik va til ta'limi uchun, balki tarjima va tarjimashunoslik

sohalari ichun ham muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

### Asosiy qism

Bu turdagi birliklar tuzilishiga ko'ra aksari murakkab tuzilishga ega.

Quyida xitoy tilida tarjima jarayonida tarjimon qo'llaydigan leksik birikmalar bilan tanishib chiqamiz.

受/承蒙...的(盛情)邀请 - ...taklifiga binoan (xushmuomalalik bilan)

Masalan, 承蒙你们的盛情邀请, 我们急忙就赶来了。

Sizning samimiy taklifingiz tufayli biz bu yerga tezda yetib keldik.

借此机会 - shu fursatdan foydalanib

Masalan, 借此机会我呈上对你衷心的祝福: 祝你一切顺利, 万事如意。

Fursatdan foydalanib, sizga samimiy tilaklarimni izhor qilaman: muvaffaqiyat va ishlaringizda omad tilayman.

代表 - ...(kimningdur) nomidan

<sup>1</sup> Егоров, В. П. Дипломатический протокол и этикет : учеб. посо-бие - М. : Юридический институт МИИТа, 2013

<sup>2</sup> X. Hamidov, N. Ismatullayeva, S. Ergasheva. Sinxron tarjima (o'quv qo'llanma). -Toshkent: ToshDSHI, 2020. - 140 b.

Филология / Филология / Philology

Masalan, 我很荣幸地代表中国政府和人民向来自联合王国的代表团表示热烈的欢迎。

XXR hukumati va xitoy xalqi nomidan Buyuk britaniya delegatsiyasini samimiyat ila kutib olish men uchun ulkan sharaf.

对.....表示 - anglatmoq, ifodalamoq

Masalan, 对大家的帮助,我表示由衷的感谢。

Hammaga yordamingiz uchun samimiy minnatdorchiligimni bildirmoqchiman.

值此.....之际 - .....munosabati bilan

Masalan, 值此付梓之际,我们谨向他们以及所有关心支持本书编写的朋友们致以衷心的感谢的谢忱!

Shu munosabat bilan, biz ularga va ushbu kitobning yozilishiga yaqindan yordam berayotgan va qo'llab -quvvatlayotgan barcha do'stlarimizga samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz!

以.....的名义 - ...nomidan

Masalan, 以自由的名义迎接新的生活,我要活出自信。

Erkinlik ila yangi hayotni kutib olish uchun, men o'zimga ishonch bilan yashashim kerak.

在.....的气氛中 - ..... bunday vaziyatda

Masalan, 中国人即使在最融洽的气氛中也保持一定的距离。

Xitoyliklar hatto eng uyg'un vaziyatda ham kerakli masofani saqlaydilar.

宣布....闭幕 - marosim oxirida ... e'lon qilish

Masalan, 现在,我愉快地宣布第二十二届万国邮政联盟大会开幕。

Xozir, men quvonch ila 22- Butunjahon pochta ittifoqi kongressi ochilishini e'lon qilmoqchiman.

尊敬的..女生/先生 - hurmatli, qadrli ...xonim/janob

Masalan, 尊敬的女生先生,希望我们所做的能让您感到满意!

Hurmatli xonimlar va janoblar, umid qilamanki, biz qilgan ishlar sizni qoniqtiradi!

向....交涉 -...bilan muzokaza olib boorish

Masalan, 这事我们已经向他们交涉过了。

Biz allaqachon ular bilan muzokara o'tkazganmiz

向....表达 - ..ga izhor qilmoq/ tilamoq

Masalan, 我向各位表达我个人诚挚的欢迎,并衷心祝愿你们的来访富有成果。Barchangizni samimiy tabriklayman va tashrifingiz muvaffaqiyatli o'tishini tilayman.

向.....表示 - ....ga bildirmoq

Masalan, 请允许我向远道而来的贵宾表示热烈的欢迎和亲切的问候。

Uzoqdan kelgan hurmatli mehmonlarni iliq kutib olish hamda samimiy salom yo'llashga ijozat bering.

Masalan, 我非常愉快地向戴维斯先生率领的澳大利亚代表团表示热烈的欢迎。Janob Devis boshchiligidagi Avstraliya delegatsiyasini samimiy kutib olishdan juda mamnunman.

Филология / Филология / Philology

征求.....的同意- ...roziligini so'ramoq

Masalan, 这个方案的实施征求了上司的同意。

Ushbu rejaning bajarilishida boshqaruvchining roziligi so'ralgan.

...提议为-....kabi taklif qilingan

Masalan, 我提议为我们的友谊与合作，乾杯！

Men do'stona hamkorligimiz uchun qadah ko'tarishingizni taklif qilaman!

...宴请- ... sharafiga ziyofat berish

Masalan, 中西都讲究正式的宴请活动的坐次安排。

Xitoy ham, G'arb ham rasmiy ziyofatlar uchun joylarni tartibga solishga e'tibor berishadi.

应.....邀请- ..... taklifiga bioan

Masalan, 应国家主席习近平邀请，美国总统进行了国事访问。

Davlat raisi Si Jinpinning taklifiga binoan, Amerika prezidenti davlat tashrifini amalga oshirdi.

...注意到-....e'tiborga olib

Masalan, 希腊注意到所有评论和补充建议。

Gretsiya barcha sharhlar va qo'shimcha takliflarni hisobga oladi.

### Xulosa

Yuqorida keltirilgan qolip birikmalar asosan tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab shaklda bo'lib, keltirilganlardan 4 ta sodda va 13 ta murakkab tuzilishga ega qolip

birikmalardir. Sodda shakldagi qolip birliklar asosan olmosh va ot, fe'l so'z turkumlariga oid so'zlardan tashkil topgan. Murakkab shaklga ega bo'lgan qolip birikmalar esa old ko'makchi+fe'l, old ko'makchi + sifat, fe'l+ot, old ko'makchi +ot shakliga ega.

Yuqorida keltirilgan birliklarda old ko'makchili birikmalar soni 7 tani tashkil etadi. Lekin har ikki tilda ya'ni xitoy va o'zbek tillaridagi grammatik qurilish, grammatik xususiyatlar, jumladan so'z turkumlariga oid bo'lgan grammatik kategoriyalarda farq bo'lganligi bois tarjimada xitoy tilidagi birliklar o'zbek tiliga tarjima qilayotganda asosan, 对 ..... 表示 ga..anglatmoq, ifodalamoq deb tarjima qilinadi. Xitoy tilida 对(dui) old ko'makchi bo'lib, o'zbek tilida -ga jo'nalish kelishigi ya'ni ko'makchilar yordamida ifodalanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanova Sh, Hamidov X Ruscha sinxron tarjima terminlarining o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: ToshDShI,2020
2. Hamidov X., Ismatullayeva N., Ergasheva S. Sinxron tarjima (o'quv qo'llanma). – Toshkent: ToshDSHI, 2020. – 140 b.
3. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008.
4. Илюхин В. М. Стратегии в синхронном переводе (на материале англорусской и русско-английской комбинаций перевода) : дис. ... канд. филол. наук. – М. : МГЛУ, 2001. – 206 с.
5. Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика. О газетно-информационном и военно-публицистическом переводе – М. : 1973. – 280 с.
6. Ismatullayeva, N. R. (2020). Probability Prediction Strategy In Simultaneous Interpretation. *CURRENT RESEARCH*

Филология / Филология / Philology

*JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 1(01), 1-6.

7. Ismatullaeva, N. R. (2020). METHODS OF ELIMINATION OF LEXICAL GAPS IN TRANSLATION (on example of Chinese and Uzbek languages). *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(10), 305-314.
8. Rasuljanovna, I. N. (2020). The concept of "lacuna" in translation studies. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(4), 123-129.
9. Usmanova, S. (2008). Altay Dillerindeki Bazı Ev Gereç Adları Üzerine. *İlmî Araştırmalar: Dil, Edebiyat, Tarih İncelemeleri*, (25), 97-103.
10. Usmanova, S. (2020). The Specialties of Uzbek Collectivism Culture. *Journal of Multiculture and Education*, 5(1), 71-86.
11. USMANOVA, S. ALTAY DİLLERİNDEKİ BAZI EV GEREÇ ADLARI ÜZERİNE. *Manas Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi*, 10(19), 123-128.
12. Saidakbarova, S. P. (2020). Fruit And Vegetables... Exploring Gastronomic Idioms In English And Uzbek (The Linguo-Cultural Analysis Of English And Uzbek Phraseological Units With The Components Fruit And Vegetables). *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 1(01), 24-32.

**Internet saytlari:**

1. [www.renminrebao.cn](http://www.renminrebao.cn)
2. [www.yangshan.cn](http://www.yangshan.cn)